

## QADIMGI TURKIY TIL VA HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA BA’ZI SO‘Z TURKUMLARINING MUTANOSIBLIGI

*Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti  
Tilshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi: I. Shamsuddinova,  
4-kurs talabalari: H. Xoshimova ; G. Abdurahmonova*

**Annotatsiya:** Maqolada so'zlarning turkumlarga ajratilish tamoyili, olmosh, ravish va taqlid so'zlarning so'z turkumi sifatidagi ahamiyati va qadimgi davrda va hozirgi davrda bu turkumdagi so'zlarning o'zgarishi xususidagi fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z turkumi, olmosh, ravish, taqlid so'zlar, ma'noviy guruh

**Аннотация:** в статье представлены принципы классификации слов по категориям, значение местоимений, наречий и подражаний как категории слов, а также изменения слов в этой категории в древности и в новейшее время.

**Ключевые слова:** группа слов, местоимение, фразеологизм, слова-подражания, семантическая группа.

**Abstract:** the article presents the principles of classification of words by categories, the meaning of pronouns, adverbs and imitations as categories of words, as well as changes of words in this category in ancient and modern times.

**Keywords:** group of words, pronoun, phraseological unit, imitative words, semantic group.

So'z turkumlarining sonini va tarkibini aniqlashda o'zbek tilshunos olimlari ham dunyo tilshunosligidagi kabi so'zlarning sintaktik, semantik, morfologik xususiyatlari inobatga olinadi. Biroq amaliyotda asosan so'zlarning semantik xossasiga qarab turkumga ajratish urfga kirgan. Sintaktik xususiyatda so'zlarning asosan qanday gap bo'lagi vazifasida kelishiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, semantik xususiyatda uning ma'no ko'lamiga e'tibor qaratiladi. Ra'no Sayfullayevaning « Hozirgi o'zbek adabiy tili»<sup>1</sup>o'quv qo'llanmasi(190- sahifa)da so'zlar semantik tasnifga ko'ra ular quyidagicha guruhlarga ajratilgan ekan:

- 1) mustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar ( fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid )
- 2) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar ( olmosh va so'z -gap )
- 3) lug'aviy ma'nosiz so'zlar ( ko'makchi, bog'lovchi, yuklama )

Ravish turkumiga to'xtaladigan bo'lsak, u mustaqil so'z turkumi bo'lib, harakat va holatning, shu bilan birga, belgining belgisini ham bildirib keladi. Ravish hamisha tilshunoslikning muammoli masalasidan bo'lib kelgan. Uni o'rgangan olim V.V.Vinogradov "mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan"deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevropa tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va

g'arb tilshunosligi ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi-o'zgaraslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Tilshunosligimizda ravish yasashi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi-asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasashini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi. Ravishlar tarkibiga e'tibor berilsa, ularda turli so'z yasash qolipi mavjudligi ma'lum bo'ladi.

Masalan: **ot+an (tabiatan), ot+chasiga (erkakchasiga), ot-larcha (mardlarcha), ot+ona (do'stona); qo'shma ravish olmosh+ot ( har gal, har zamon) , ravish+ot (hali zamon, hali beri), son+ot (bir yo'la, bir dam);**

bundan tashqari boshqa so'z turkumidagi so'zning takroridan ham ravish hosil bo'lishi mumkin: yuzma-yuz, quruqdan quruq...

Qadimgi turkiy tilda hozirgi o'zbek adabiy tilida yo'q bo'lgan ravishlar bor.

Masalan: **otru (so'ngra), kisre(keyin), keru (orqaga), ongre(oldinga, oldinda)**

kabi ravishlar shular jumlasidandir.. Ba'zi ravishlar shaklan va mazmunan o'zgargan. Masalan qadimiy qop (butunlay) hozir xo'p shaklida va ma'nosi ham bir oz toraygan. Endi so'zi emti shakliga, quyi so'zi esa kudu shakliga ega. Qadimgi turkiy tilda ravishlar xuddi hozirgi kabi boshqa so'z turkumlariga nisbatan ko'p emas. Shunday bo'lsa-da, bir qator ravishlarni uchratishimiz mumkin. Mavjud ravishlar ham tub va yasama negizlarga ajraladi. Ravishlarning payt, o'rin, miqdor va holat kabi ma'noviy guruhlari qadimda ham mavjud bo'lgan.

Taqlid so'zlar ma'no va shakliy xususiyatlariga ko'ra, alohida guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va boshqa jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat obrazini taqlidan ifodalovchi so'zlar hisoblanadi. Taqlid so'zlar asosan 2ta lug'aviy ma'noviy guruhlarga ajratiladi:

a) harakat-holatga taqlid : **yalt-yult, jivir-jivir, milt-milt;**

b) tovushga taqlid (onomatopeya) : **qars-qurs, duk-duk, tap-tup;**

Taqlidlar yasalmaydi, balki yasash uchun asos bo'ladi.

"N.I.Ashmarinning ta'biri bilan aytganda,taqlidiy so'zlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o'z"qurilishiga ko'ra aniq bir xillikka"ega, shu tufayli bu kategoriyadagi so'zlarni"osonlikcha ma'lum bir formula asosida joylash"hamda"aniq shakllangan guruhlarga ajratish"mumkin.Taqlidiy so'zlardagi bunday xususiyatlarini hozirgi turkiy tillardagi taqlidiy so'zlarni qiyoslash natijasida yaqqolroq sezish mumkin."<sup>2</sup>

1.R.Sayfullayeva.Hozirgi o'zbek adabiy tili.T.2009

2.Y.Abdurasulov.Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.T.Fan.2009

Olmoshlar boshqa so'z turkumlariga ishora qiluvchi mustaqil so'z turkumi hisoblanadi. Ular ma'noviy g'ayrioddiylik xususiyati bilan taqlidga yaqin turadi. Shuning uchun ikalasi ham «ichi bo'sh so'z» hisoblanadi. Farqi shundaki, taqlidning ma'noviy bo'shlik xususiyati olmoshga nisbatan ancha katta. Sababi olmosh har qanday so'zga, nafaqat so'z, so'z birikmasi, gap, butun boshli bir matnga ham ishora qila oladi. Taqlid so'zda esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ko'plab o'quv qo'llanmalarda shuni inobatga olgan holda olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida e'tirof etilgan.

"Umumturkiy kishilik olmoshlari dan faqat yoqut tili III shaxs birlik va ko'plikdagi olmoshlari farqlanadi.

Masalan: **min, en, kihi, bihigi (bihi), ehigi (ihigi, ihi), kihiler.** Bundan tashqari yoqut tilida I, III shaxs ko'plik olmoshlari boshka turkiy tillardan farqli holda **igi** qo'llanadi. Turkiy tillardagi kishilik olmoshlarining eng qadimiy shakllari haqida turli turkshunos olimlar o'rtasida har xil fikrlar bo'lishiga qaramay A.M.Shcherbak ularning eng qadimgi shaklini quyidagicha tasvirlaydi:

<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
<b>I.пэн.</b>	<b>пиис</b>
<b>II.сэн.</b>	<b>сиис</b>
<b>III.ын,ан.</b>	<b>анлар</b>

Lekin kishilik olmoshlari etimologiyasi bilan shug'ullangan hamma olimlar tomonidan I-II shaxs birlik va ko'plik olmoshlarining so'nggi undoshlari(-n, -s) keyingi davrlar mahsuli ekanligini, III shaxs olmoshlari ham **ын, in** shahrida emas, balki ko'rsatish olmoshi **ol** shalkida bo'lganligini ta'kidlashadi."<sup>3</sup>

So'zlar mustaqil bo'lishi uchun, atash ma'nosiga ega bo'lishi, gapda sintaktik vazifa bajarishi kerak bo'ladi. Olmoshning mustaqil ma'nosi bo'lmagani bilan u barcha mustaqil va nomustaqil so'zlarga ishora qila oladi. Olmoshlar ham xuddi taqlid so'zlar kabi yasalmaydi, yasalish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi olimlar yasama olmoshlar sifatida qo'shma olmoshlarni misol qilib keltiradilar.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bugungi kun tilshunosligimizda so'zlarning turkumlarga ajratilishida qadimgi davr tilshunosligidan katta tafovut bilan farqlanmaydi. Ko'rinish shakli va ba'zilarining ma'nosidagi o'zgarishlarni hisobga olmasa, ularning qonuniyatlari deyarli bir xil.

3 .Y.Abdurasulov.Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.T.Fan.2009

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.Y.Abdurasulov.Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.T.Fan.2009
- 2.R.Sayfullayeva.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.T.2009
- 3.A.F.G'ulomov, Sh.U.Rahmatullayev, M.S.Sodiqova, M.A.Asqarova, A.P.Xojiyev, C.F.Fuzailov, Sh.Sh. Shoabdurahmonov, R.Q.Qo'ng'urov.O'zbek tili grammatikasi.T.1975
- 4.H.A.Dadaboyev, Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.T.2019